



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



No 8  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariysi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi (sohalalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariysi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariysi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariysi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 286 sahifa,  
1-avgust, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirlari

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

Gafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiysi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiysi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

# MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
Abduraximov Doniyor Abdu said o'g'li	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi .....	30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar mакtablarining zarurati va ahamiyati .....	33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv .....	39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari .....	44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies.....	52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari .....	55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida .....	59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni .....	65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....	72
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
Boypolvonov Barot Djonqobilovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....	86
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri .....	90
Jumanova Ug'iloy Sodiqjonovna	
Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
Koshayeva Sansabila Kamiljanovna	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati .....	105
Murodova Madina Karim qizi	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari .....	108
Ortiqov Mironshoh Sodiqovich	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda	
Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish.....	110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika .....	120
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi .....	123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati .....	128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich	
Adabiy ta'lif jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda	
motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish .....	132
F. Zaynabuddinov	
Razvitiye polikultural'noy kompetentnosti studentov v obrazovatel'noy srede vuz'a .....	135
Kireeva Elvina Flaritovna	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar .....	140
Sanayev Gayrat Shermuxamedovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning	
pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish .....	144
Boybo'riyeva Saodat O'rakovna	
Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari .....	148
Davletova A.	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limi rivojlantirishning huquqiy asoslari .....	152
Ganiyeva Gulruk Tavakkaljon qizi	
Innovatsion ta'lif texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish .	156
Madmarova Gulchexra Qodirovna	
O'lakashunoslik materiallarining oliy ta'lif jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish .....	160
Mamajonov Mo'minjon	
Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli .....	165
Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi	
Sun'iy intellektga asoslangan ta'limi resurslarning pedagogik imkoniyatlari.....	169
Muhiddinov Muhriddin Nuriddin o'g'li	
Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda	
interfaol metodlarning ahamiyati.....	173
Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna	
Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini,	
ularning o'yin amplusasini hisobga olgan holda aniqlash usullari .....	178
Odilova Feruzaxon Valijon qizi	
PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda	
IMEN texnologiyalaridan foydalanish.....	184
Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi	
Yoshlar o'tasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya	
zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari .....	188
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich	
Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'lidan foydalanishning	
pedagogik shart-sharoitlari .....	192
Rasulova Nozigul Abdovich qizi	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish .....	196
Sharsofova Nilufar Ilhom qizi	
Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lif samaradorligini oshirishning	
pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida) .....	200
Tuxtasinova Munira Ibragimovna	
Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish	
va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	204
Umarova Madinabonu Bahodir qizi	

O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari .....	208
<i>Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi</i>	
Nofillologlarni (filolog bo'Imaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida	
zamonaviy inglez tilining lingvometodik tahibili.....	214
<i>Zarina Itolmasova</i>	
Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar.....	219
<i>Hasanova Sumanbar Hamroqulovna</i>	
Разработка и внедрение виртуальных лабораторных работ по биохимии для студентов	
фармацевтических факультетов.....	222
<i>Мамадалиева Зарина</i>	
Abduqodir Shakuriyning ta'lif va tarbiya haqidagi umumiy qarash va g'oyalari: chuqur tahlil .....	226
<i>Ashurova Dilrabo Isroi qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi ..	230
<i>Jakbarova Zarifaxon Solijon qizi</i>	
Badiiy-estetik qobiliyat tuzilmasi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....	233
<i>G. S. Kaxarova</i>	
Umumta'lif maktablarida informatika o'qitish asosida ta'lifni raqamlashtirishning metodologik asoslari...	236
<i>Mamajanov Rakhmatilla Yakubjanovich</i>	
Shaxsda ma'nnaviy intellektni rivojlanishiga qadriyatlar yo'nalganligining ta'siri.....	240
<i>Mirxoliqova Charos Xabibullayevna</i>	
O'qituvchilarning sun'iy intellekt bo'yicha kompetentligini rivojlantirishda metodik yondashuv .....	244
<i>Najmetdinova Nargiza Sayfedinovna</i>	
Ismlarning ma'noliligi va ularni o'qitishda lingvopedagogik yondashuvlar .....	252
<i>Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich</i>	
Fitnes-aerobika mashqlaridan foydalangan holda sog'lomlashtirish mashg'ulotlari uslubiyati .....	258
<i>Shaxriddinova Laylo Nurxonovna</i>	
Raqamli ta'lif texnologiyalarining didaktik va "learning analytics"ning nazariy asoslari .....	262
<i>Sulaymanov Zulqaynar Rajabali o'g'li</i>	
Esse yozishni o'rgatishda zamonaviy metodlar.....	268
<i>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</i>	
Iqtisodiy matnlar tarjimasini o'rgatishda raqamli simulyatsiya va	
virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	272
<i>Xujanazarova Nozima Omonjonovna</i>	
Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy metodologik asoslari .....	275
<i>Axmedov Nodir Sadir o'g'li</i>	
Talaba-yoshlarda qo'shiq ijrochilik san'atini shakllantirishning	
zamonaviy pedagogik xususiyatlari: ta'lif islohotlari kontekstida yondashuv.....	279
<i>Begisbay Temirbayev</i>	
Xorijiy davlatlarda biologiya o'qituvchilarini tayyorlash tajribasi va uni	
O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari .....	283
<i>Hayitov Abdirasul Eshdavlatovich</i>	

# TALABA-YOSHLARDA QO'SHIQ IJROCHILIK SAN'ATINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI: TA'LIM ISLOHOTLARI KONTEKSTIDA YONDASHUV

**Begisbay Temirbayev**

O'zbekiston san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lif islohotlari kontekstida talaba-yoshlarda qo'shiq ijrochilik san'atini shakllantirish jarayonining zamonaviy pedagogik va falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Vokal ta'lifining an'anaviy texnik yondashuvlardan kompetensiyaviy, refleksiv, estetik va innovatsion paradigmalarga o'tishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Jumladan, emotsiyonal-vokal, kommunikativ-sahna, lingvopoetik va refleksiv-tahliliy kompetensiyalarini shakllantirish vokal pedagogikasining markaziyo yo'naliishi sifatida ochib beriladi. Milliy musiqiy meros (maqom, xalq og'zaki ijodi, Berdaq ijodi) va zamonaviy texnologiyalar (Yousician, ScoreCloud, ovoz spektrogrammasi) integratsiyasi orqali talabada estetik ong, madaniy identitet va ijodiy tafakkur shakllanishi ta'minlanadi. Vokal san'atining tanaviy, psixologik, nutqiy va estetik o'lchamlardagi sintezi orqali shaxsning o'zini anglash, ifodalash va rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, maqolada vokal pedagogikasining ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlari chuqur tahlil qilinib, zamonaviy vokal ta'lifining tarbiyaviy, estetik va madaniy funksiyalari asoslananadi.

**Kalit so'zlar:** vokal san'ati, pedagogik islohotlar, kompetensiya, refleksiya, estetik ong, raqamli vositalar, madaniy identitet, vokal pedagogika.

**Abstract:** This article analyzes the modern pedagogical and philosophical foundations of developing the art of vocal performance among students in the context of ongoing educational reforms in the Republic of Uzbekistan. The transition of vocal education from traditional technical approaches to competency-based, reflective, aesthetic, and innovative paradigms is scientifically substantiated. In particular, the formation of emotional-vocal, communicative-stage, linguopoetic, and reflective-analytical competencies is highlighted as the central focus of vocal pedagogy. The integration of national musical heritage (maqom, oral folk art, the works of Berdakh) with modern technologies (Yousician, ScoreCloud, voice spectrogram) ensures the development of aesthetic consciousness, cultural identity, and creative thinking in students. The synthesis of bodily, psychological, speech, and aesthetic dimensions of vocal art is shown to expand the individual's ability for self-awareness, self-expression, and personal growth. In addition, the ontological, epistemological, and axiological aspects of vocal pedagogy are thoroughly examined, and the educational, aesthetic, and cultural functions of modern vocal education are substantiated.

**Key words:** vocal art, educational reforms, competence, reflection, aesthetic consciousness, digital tools, cultural identity, vocal pedagogy.

**Аннотация:** В данной статье анализируются современные педагогические и философские основы формирования у студентов искусства вокального исполнения в контексте проводимых в Республике Узбекистан образовательных реформ. Научно обосновывается переход вокального обучения от традиционных технических подходов к компетентностным, рефлексивным, эстетическим и инновационным парадигмам. В частности, формирование эмоционально-вокальной, коммуникативно-сценической, лингвопоэтической и рефлексивно-аналитической компетенций раскрывается как центральное направление вокальной педагогики. Интеграция национального музыкального наследия (макам, устное народное творчество, творчество Бердаха) и современных технологий (Yousician, ScoreCloud, спектограмма голоса) обеспечивает формирование у студентов эстетического сознания, культурной идентичности и творческого мышления. Синтез телесных, психологических, речевых и эстетических измерений вокального искусства раскрывает возможности личности для самопознания, самовыражения и развития. Кроме того, глубоко анализируются онтологические, гносеологические и аксиологические аспекты вокальной педагогики, обосновываются воспитательные, эстетические и культурные функции современного вокального образования.

**Ключевые слова:** вокальное искусство, образовательные реформы, компетенция, рефлексия, эстетическое сознание, цифровые средства, культурная идентичность, вокальная педагогика.



## KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi ta'lrim tizimi keng qamrovli va strategik yo'naltirilgan islohotlar bosqichiga kirib bormoqda. Ushbu islohotlar mamlakatda inson kapitalini shakllantirish, raqamli ta'lrim muhitini joriy etish, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, ijodiy va estetik tafakkurga ega shaxsni tayyorlash kabi dolzarb masalalarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon, shubhasiz, musiqa ta'limi sohasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, vokal san'ati – qo'shiq ijrochiligi bo'yicha ta'lrim mazmuni va shakllari tubdan yangilanmoqda, pedagogik yondashuvlar esa zamonaviy metodikalar, raqamli vositalar hamda gumanistik-falsafiy qarashlar bilan boyitilmoxda.

Ta'kidlash joizki, vokal ijrochilik san'ati nafaqat texnik kompetensiyalar majmui, balki talabaning emotsional holati, estetik idroki, kommunikativ qobiliyati va madaniy identitetini shakllantiruvchi ko'p qatlamlili pedagogik jarayondir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli<sup>1</sup> Farmonida "inson kapitalini shakllantirish" hamda ijodiy va estetik tafakkurga ega barkamol shaxsni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanganligi, aynan vokal ta'luming metodologik asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda vokal ta'limi masalalari bo'yicha turli yondashuvlar mavjud. Jumladan, vokal pedagogikasining an'anaviy texnikaga asoslangan modeli haqida G. Schroeder, tanaviy ong va san'at ifodasi o'rtaсидаги узбекий боғлиқлик хақида M. Merlo-Ponti, vokal san'atining ontologik mohiyati borasida esa J.-C. Boulay asarlarida muhim nazariy q'oysalar ilgari surilgan. Shuningdek, vokal ta'limida emotsional-intellektual rivojlanishning o'rnii, refleksiv yondashuvlar va ko'p intellekt nazariyasining ta'siri alohida e'tiborga molikdir. Mahalliy pedagogik tafakkurda esa Abu Nasr Forobi, Alisher Navoiy, Berdaq ijodi orqali musiqaning estetik va axloqiy tarbiya vositalasi sifatida qaralishi, vokal ta'luming qadimiy manbalariga asoslanishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim texnologiyalari vokal kompetensiyalarni mustaqil shakllantirish, tahlil qilish va refleksiya yuritish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bunday vositalarning ta'lim jarayoniga kirib kelishi vokal mashq'ulotlarni multimodal shaklga keltirib, ularni kognitiv va estetik kompetensiyalar bilan integratsiyalash imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchi o'z ovozining chastota, intonatsiya va timbral xususiyatlarini tahlil qila oladi, bu esa "ovozungning ongli boshqaruvi" tushunchasini shakllantiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi – O'zbekiston ta'lim islohotlari doirasida qo'shiq ijrochilik san'atining pedagogik-falsafiy asoslarini tahlil qilish, kompetensiyaviy, refleksiv, estetik va raqamli yondashuvlar integratsiyasi orqali zamonaviy vokal ta'luming nazariy va amaliy yo'nalishlarini asoslab berishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish jarayonida vokal ta'limi sohasidagi dolzarb islohotlarning mazmunini yoritish, san'atda kompetensiyaviy va refleksiv yondashuvlarning o'rnnini ochib berish, milliy musiqiy merosning zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyasi asosida shakllanuvchi pedagogik modelni tahlil qilish, talaba-yoshlarning estetik ongini rivojlantiruvchi vokal kompetensiyalar tarkibini aniqlash hamda zamonaviy vokal ta'luming falsafiy-ontologik asoslarini ilmiy jihatdan asoslash kabi vazifalar belgilab beriladi. Shu tariqa, maqolada vokal ijrochilik san'atini rivojlantirishga oid yangi yondashuvlar, metodik shakllar va texnologiyalar asosida estetik, madaniy va kommunikativ jihatdan yetuk shaxsni shakllantirishning ilmiy asoslari tahlil qilinadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy pedagogik paradigmalarga tayangan holda, vokal ta'limi sohasida shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, refleksiv va estetik yondashuvlar tashkil etadi. Talaba-yoshlarning vokal kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini tahlil qilishda musiqiy-pedagogik, madaniy-falsafiy va tanqidiy-tahliliy metodlar uyg'un holda qo'llanildi.

*Birinchidan*, nazariy-tahliliy metod yordamida O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, ularning musiqiy ta'lim, xususan qo'shiq ijrochilik san'atiga ta'siri, shuningdek, vokal pedagogikasida qo'llanilayotgan metodlar va tamoyillar o'rganildi. Bu jarayonda xorijiy va mahalliy pedagogik adabiyotlar, zamonaviy vokal ta'limi nazariyalariga doir asarlar (Maslow, Gardner, Ponty, Boulay, Forobi, Navoiy) tahlil qilindi.

*Ikkinchidan*, komparativ-tahliliy metod asosida vokal ta'limidagi an'anaviy (reproduktiv) va zamonaviy (refleksiv, eksistensial, konstruktivistik) yondashuvlar solishtirildi. Bunda vokal kompetensiyalarining (emotsional-vokal, sahna-kommunikativ, lingvopoetik va refleksiv-tahliliy) shakllanish xususiyatlari o'zaro taqqoslab tahlil qilindi.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

*Uchinchidan*, gnoseologik va aksilogik yondashuv asosida vokal san'atining bilish, anglash, ifoda va qadriyatlar tizimidagi o'rni ochib berildi. Ayniqsa, vokal ijrochilikning madaniy identitetni shakllantirishdagi roli hamda shaxsiy-estetik tajribaning tarbiyaviy ahamiyati asoslab berildi.

*To'rtinchidan*, ontologik-metaforik metod orqali vokal ta'limi insonning ovoz orqali o'zini anglash va jamiyatda eshitiladigan mavjudlik sifatida namoyon bo'lishi nuqtayi nazaridan falsafiy jihatdan izohlandi. Bu yondashuvda ovoz ifodasi nafaqat texnik mahorat, balki shaxsning ontologik namoyoni sifatida talqin qilinadi.

*Beshinchidan*, multimodal va raqamli pedagogika metodlari tahlilga jalg qilindi. Xususan, maxsus platformalar orqali vokal ijroni audio-vizual tahlil qilish, refleksiya yuritish va vokal texnikani shakllantirish imkoniyatlari o'rganildi. Bunda "ovozning ongli boshqaruvi" fenomeni markaziy nazariy tushuncha sifatida yoritildi. Shu asosda maqolada qo'llanilgan metodlar vokal ijrochilik san'atini o'qitish jarayonining murakkab, ko'p qirrali va integrativ mohiyatini ochib berishga xizmat qilmoqda. Mazkur metodologik asos vokal ta'lrimini nafaqat kasbiy tayyorgarlik sohasi, balki insoniy, madaniy va estetik shakllanish vositasini sifatida yoritishga imkon berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ta'lismizda olib borilayotgan islohotlar qo'shiq ijrochilik san'atining mazmuni va shakliga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, vokal ta'limi sohasida kompetensiyaviy, refleksiv, estetik va raqamli yondashuvlar integratsiyasi asosida shakllanayotgan yangi pedagogik model tala-ba-yoshlarning shaxsiy rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlamоqda. An'anaviy ustoz-shogird modeli o'rnini asta-sekin shaxsga yo'naltirilgan, madaniy-kognitiv va gumanistik asoslangan yondashuvlar egallamoqda. Bunda emotsiyonal-vokal, kommunikativ-sahna, refleksiv-tahliliy va lingvopoetic kompetensiyalarni shakllantirish orqali talaba faqat texnik jihatdan emas, balki estetik va madaniy jihatdan ham yetuk ijodkorga aylanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Maqolada isbotlanganidek, vokal san'ati endilikda shunchaki kuylash texnikasi emas, balki talabaning ichki dunyosini, estetik sezgilarini, madaniy ongini va ruhiy kechimlarini ifoda etish vositasiga aylanmoqda. Bu jarayon Viktor Frankl va Karl Yaspersning eksistensial falsafiy qarashlari bilan hamohang bo'lib, insonning ovoz orqali o'zligini anglash, hayotdagи ma'nosini topish va jamoa bilan estetik muloqotga kirishish ehtiyojini qondirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, vokal sahnasining "ichki men"ni tashqi rezonansga aylantirish imkoniyati sifatida qaralishi, vokal ifodani ontologik akt deb talqin qilishga asos bo'lmoqda. Bu jihatdan vokal pedagogikasi insonning mavjudlik tajribasini san'at vositasida ifodalashga imkon beruvchi estetik-falsafiy makonga aylanmoqda.

Milliy musiqiy meros – jumladan, maqom, xalq og'zaki ijodi, Berdaq ijodi – zamonaviy raqamli vositalar bilan uyg'unlashtirilmoqda. Ovoz yozish uchun maxsus platformalar yordamida o'quvchilar o'z ovozini tahlil qilishi, vizual va spektral kuzatish orqali texnik hamda estetik kamchiliklarni aniqlab, refleksiv tahlil asosida mustaqil tuzatish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa "ovozning ongli boshqaruvi" deb nomlanuvchi yangi fenomenni yuzaga chiqarmoqda. Raqamli texnologiyalar vokal pedagogikasining tanaviy, psixologik, nutqiy va kognitiv qatlamlarini uyg'unlashtirib, mashg'ulotlarni multimodal va interaktiv formatga aylantirmoqda. Shuningdek, tadqiqotda aniqlanishicha, vokal o'qituvchisi endilikda nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki talabaning ichki ovozini uyg'otuvchi, uning estetik tafakkurini shakllantiruvchi va shaxsiy kamolotiga yo'l ko'rsatuvchi murabbiy sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan "yaqin taraqqiyot zonasи" nazariyasi ning zamonaviy talqini sifatida baholanadi. Pedagog va talaba o'rtafigi estetik rezonans, vokal muloqot va sahna improvizatsiyasi orqali shaxsning madaniy-muloqotiy salohiyati kuchaymoqda.

Umuman olganda, vokal san'ati ta'limi bugungi islohotlar jarayonida faqat kasbiy tayyorgarlik sohasi emas, balki shaxsni estetik idrok, madaniy sezgi, ruhiy tafakkur va kommunikativ kompetensiyalar orqali tarbiyalash vositasini sifatida yangicha mazmunga ega bo'lmoqda. Mazkur natijalar zamonaviy ta'lismizda vokal ijrochilik san'atiga kompleks, ko'p qatlamli, estetik va gumanistik yondashuv zarurligini asoslaydi. Demakki, vokal pedagogikasi shaxsni anglash, estetik uyg'onish va madaniy o'zlikni ifodalash jarayoni sifatida talqin etilishi kerak.

## XULOSA

O'zbekiston ta'lismizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar natijasida qo'shiq ijrochilik san'atining mazmuni va unga bo'lgan pedagogik yondashuvlar tubdan o'zgarib bormoqda. Mazkur maqolada olib borilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, zamonaviy qo'shiq ijrochilik ta'limi endilikda shunchaki texnik bilimlar majmuasi emas, balki talaba-yoshlarning estetik dunyoqarashini, emotsiyonal sezuvchanligini, madaniy ongini va kommunikativ qobiliyatlarini uyg'un tarzda rivojlantiruvchi kompleks pedagogik faoliyat shaklida talqin etilmoqda. Qo'shiq ijrochilik san'atining kompetensiyaviy, refleksiv, estetik va raqamli jihatlar bilan uyg'unlashuvni

ta'lim jarayonini insonni shaxs sifatida anglash va uni ovoz orqali o'zligini ifodalashga yo'naltirilgan estetik-falsafiy makonga aylantirmoqda. Ayniqsa, vokal ijroning ontologik, gnoseologik va aksilogik o'lchamda tahlil qilinishi ushbu faoliyat turining nafaqat san'at, balki shaxsiy rivojlanish, madaniy anglash va ma'naviy kamolot vositasi ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, maqolada milliy musiqiy meros va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasining vokal pedagogikasidagi o'rni asoslab berildi. Bu integratsiya nafaqat ijro mahoratini oshirish, balki o'quvchilarda madaniy identitet, milliy o'zlik va estetik didni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalar orqali vokal ifodaning refleksiv tahlili, ovoz parametrlarini ongli boshqarish va o'z ustida ishslash ko'nikmalari kengaymoqda.

Xulosa qilib aytganda, vokal san'atining zamonaviy ta'limdiagi roli yangicha talqin qilinmoqda: u faqat musiqiy yo'nalish emas, balki estetik ong, madaniy sezgi, ruhiy uyg'onish va shaxsiy o'zlikni shakllantirish vositasidir. Shunday ekan, vokal pedagogikasi islohotlar ruhiga mos holda, shaxsga yo'naltirilgan, innovatsion va madaniy jihatdan sezgir bo'lgan metodologik asoslar bilan boyitilishi zarur. Bu esa ta'lim strategiyalarini yangilash, metodik vositalarni takomillashtirish va pedagogik yondashuvlarni falsafiy asosda qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'uixati:**

1. Маслоу А. Мотивация и личность. – СПб.: Речь, 2007. – 352 с.
2. Роджерс К. Взгляд на психотерапию, становление человека. – М.: Прогресс, 1994. – 480 с.
3. Франкл В. Человек в поисках смысла. – М.: Прогресс, 1990. – 256 с.
4. Понти М. М. Феноменология восприятия. – М.: Академический проект, 2001. – 480 с.
5. Буле Ж.-К. Вокальное выражение как онтологический акт // Revue de Philosophie du Corps. – 2015. – № 2. – С. 47–58.
6. Гарднер Х. Структура разума: теория множественного интеллекта. – М.: Вильямс, 2007. – 512 с.
7. Выготский Л. С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика, 1991. – 480 с.
8. Шредер Г. Музыка как коммуникация. – Висбаден: Breitkopf & Härtel, 2009. – 268 с.
9. Абу Наср ал-Фараби. Большая книга о музыке (Рисала ал-Мусика ал-Кабир). – Ташкент: Фан, 1993. – 336 с.
10. Навоий А. Мизон ул-авзон. – Ташкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашириёти, 1982. – 186 б.
11. Бердақ. Шығармалар топламы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1993. – 292 б.
12. Президент фармони РF-60-сон. – 2022 йил 28 январь. // lex.uz – URL: <https://lex.uz/docs/5841063>
13. Yousician. – URL: <https://yousician.com>
14. VoCo Vocal Analyzer. – URL: <https://vocoapp.com>
15. ScoreCloud. – URL: <https://scorecloud.com>
16. Selkirk M., Keamy R. Creative pedagogies: "Art-full" teaching and learning. // Teaching Education. – 2017. – Vol. 28, No. 3. – P. 307–318.
17. Baudrillard J. Simulacres et Simulation. – Paris: Éditions Galilée, 1981. – 253 p.

- 13.00.00** Pedagogika fanlari
- 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03** Maxsus pedagogika
- 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07** Ta'limda menejment
- 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00** Tarix fanlari
- 19.00.00** Psixologiya fanlari
- 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00** Kimyo fanlari
- 03.00.00** Biologiya fanlari
- 09.00.00** Falsafa fanlari
- 10.00.00** Filologiya fanlari
- 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.